

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-5120300-_____
“___” _____201_ yil

Samarqand davlat universiteti
rektori
_____ I.Xalmuradov
2019yil “___” _____

**«ChINGIZXON VA UNING VORISLARI
DAVRI TARIXI»
TANLOV (MUTAXASSISLIK) FANINING
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000	–	Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5120300	–	Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

Samarqand – 2019

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201_ yil “___” _____dagi “___” -sonli bayonnoma).

Fakultet dekani:

dots.D.M. Djurakulova

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Elimov.L.Sh - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrasini o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Handamova M. - SamDChTI ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Rahmatullayev M.R. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrasini o‘qituvchisi, t.f.n.

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 201_ yil “___” _____dagi “___”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

O‘quv uslubiy Kengash raisi:

prof.A.S.Soleev

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Jahon tarixi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish talabalarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham jahon tarixi fanining beqiyos ahamiyatini tan olish kerak.

Dunyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyusiyasining asosiy bosqichlari, hamda yo'nalishlari haqida talabalarga har tomonlama bilimlar berish.

Shu boisdan ham keyingi davr mobaynida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli bakalaviat bosqichi talabalarini haqiqiy mutaxassis sifatida tayyorlash maqsadida mutaxassislik fanlariga katta e'tibor qaratilgan. Tanlab olingan «Chingizxon va uning vorislari davri tarixi» tanlov fani o'rta asrlarning ulkan imperiyalaridan biri bo'lgan mo'g'ullar davlatining tarixi, ularning harbiy yurishlari va uning oqibatlari, turli hududlarda deyarli bir vaqtda vujudga kelgan mo'g'ul davlatlarining shu hudud ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy taraqqiyotida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar, tahlillar va xulosalar beradi. Talaba birgina shu tanlov fan orqali Yevropa, Markaziy Osiyo, Rossiya, Yaqin va Uzoq Sharq, Janubiy – Sharqiy Osiyo kabi mintaqalar tarixi bilan tanishib chiqadi. Sababi Chingizxon boshchiligida vujudga kelgan yagona mo'g'ul davlatining keyingi taraqqiyoti davomida shu mintaqa xalqlari tarixida o'z ta'sirlarini o'tkazishga erishdi. Bir so'z bilan aytgan mo'g'ullarning harbiy kuchi va qudrati ularga shu mintaqalarda bir muddat hukmronlik o'rnatishini ta'minlab berdi.

Tanlov fan jahon tarixining uzviy bir bo'lagini tashkil etadi. Shuning uchun ham fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar jahon tarixi fanini o'qitishda talabalarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadi.

Jahon tarixining turli bosqichlarida ro'y bergan muhim voqealar va jarayonlarni yoritib berish; – insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil qilish; - tarixiy rivojlanish davomida turli mamlakatlar va mintaqalarga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish; - dunyoning turli chekkalarida ro'y bergan voqealar va jarayonlarning ko'p hollarda o'zaro bog'liqligini talabalarga tushuntirish; tarixiy rivojlanishning barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyatlar mavjudligini namoyon qilish.

“Chingizxon va uning vorislari davri tarixi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Jahon tarixi davrining hususiyatlarini, Osiyo xalqlari orasida feodal munosabatlar taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlarini, tovar-pul munosabatlari, feodal jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va diniy hayotidagi o‘zgarishlarni *bilishi kerak*;
- Ko‘chmanchilik sharoitida turmush kechiruvchi Mo‘g‘uliston va unga tutash hududlardagi xalqlar orasida davlatchilik munosabatlarining shakllanishiga olib kelgan omillar va sabablarni to‘g‘ri tushunish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*;
- talaba o‘rganilayotgan davrda jahon tarixining Osiyo va Afrika, Yevropa xalqlari tarixida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, mintaqadagi umumiy siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy ahvolni tahlil qilish va bu jarayonga tashqi ta‘sirler qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi *malakalariga ega bo‘lishi kerak*.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

«Chingizxon va uning vorislari davri tarixi» jahon tarixining o‘rta asrlar davriga taalluqli bo‘lib, talabalar uni ta‘lim yo‘nalishlaridan kelib chiqib 4-kursda bir semestr davomida o‘rganishadi.

«Chingizxon va uning vorislari davri tarixi» fanining asosiy maqsad bir paytlar ko‘chmanchilikda yashab, dunyoning deyarli hiech bir xalqi bilmaydigan mo‘g‘ullarning qisqa va tez fursatlarda katta masshtabdagi harbiy bosqinchilik yurishlarining uyushtirilishi va davlatning nisbatan uzoq hukmronlik qilish tarixini hamda sabablarini o‘rganishdan iborat. Shundan kelib chiqib quyidagi fan quyidagi vazifalarni bajarishni maqsadga muvofiq deb biladi:

- ◆ O‘rta asrlar mo‘g‘ullar tarixiga oid tarixiy manbalarni tahlildan o‘tkazish;
- ◆ O‘rta asrlar mo‘g‘ullar tarixining iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarini ochib berish;
- ◆ Jahon tarixida mo‘g‘ullar davlatining o‘rnini ko‘rsatish;
- ◆ Yevropa va Sharq mamlakatlarda mo‘g‘ul bosqinchiligiga berilgan munozarali masalalar tarixshunosligini tahlil etish

III. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

O‘rta asr Mo‘g‘uliston tarixini yoritishda mo‘g‘ul, xitoy tarixiy manbalari. Mo‘g‘ul tarixi manbalari

Mo‘g‘ullarning sirli tarixi, («Mongol un niucha tobcha’an») Buyuk Yasoq kitobi, «Buyuk mo‘g‘ul davlati», «Erdeniyn tobchi», «Altan tobchi», «300 taychiut bilan uchrashuv», «Altin defter» tarixiy manbalarining XII-XIII asrlar Mo‘g‘ul davlati tarixini o‘rganishdagi ahamiyati. Mo‘g‘ul tarixiy manbalarida mazkur

davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va siyosiy tuzumning tushuntirilishi. XIII-XVII asrlar mo'g'ul tarixiy manbalarida Chingizxon va uning vorislari hayot yo'lining yoritilishi. Mo'g'ul tarixiy manbalarida yagona mo'g'ul davlatining tashkil topishi masalasining aks ettirilishi. Mo'g'ul manbalarida keltirilgan joy nomlari, qabilalar masalasiga doir ba'zi bir fikrlar. Mo'g'ul tarixiy manbalarining holisonaligi va ishonchliligi masalasida tarixchi olimlarning bildirgan fikrlari. «Mo'g'ullarning sirli tarixi» asariga rus sharqshunos va mo'g'ul olimlari tomonidan berilgan baho.

Mo'g'ulistonning o'rta asrlar tarixini o'rganishda xitoy va uyg'ur manbalarining ahamiyati

Xitoy tarixiy manbalari. «Yuan chao bi-shi», «Shen-u sin chjen-lu», «Tun szen gan-mu» asarlarida ilk mo'g'ul davlatiga berilgan tavsif. Xitoy manbalarida mo'g'ullarga berilgan baho, ularning xitoy xalqiga nisbatan amalga oshirgan xunrezliklarining tushuntirilishi. Xitoy tarixiy manbalarida Yuan va Min sulolalari hukmronligi davrida mo'g'ullar masalasining yoritilinishi. Uyg'ur tarixiy manbalari.

O'rta asrlar mo'g'ul davlati va mo'g'ullar masalasini yoritishda yevropalik mualliflarning asarlari manba sifatida

(Plano Karpini, Vilgelm Rubruk va Marko Polo). Plano Karpini, Gilom Rubruk, Marko Polo xotiralarida XIII-XIV asrlarda mo'g'ullar jamiyati masalasining yoritilishi. Arman manbalarida «mo'g'ul» atamasining ishlatilishi va mo'g'ullarga berilgan baho. Mo'g'ullarning ilk bora Kavkazda paydo bo'lishi masalasining o'rta asr tarixchilari tomonidan yoritilishi «Kotman» va «Xunan» masalalari. Mo'g'ullarning Rus yerlariga uyushtirgan bosqinining xorijiy sayyohlar tomonidan ta'riflanishi. Rus manbalarida XIII asrda mo'g'ul-tatar bosqinchilarining Rusda yuritgan siyosati masalasining yoritilishi. Rus xalqining bosqinchilarga qarshi kurashining rus manbashunosligida o'rganilishi. Xorij manbashunosligida mo'g'ullarning Yevropaga yurishlari masalasining yoritilinishi.

O'rta asrlar Mug'uliston tarixining tarixshunoslikda o'rganilishi.

Ilk Mo'g'uliston tarixini o'rganishda N.M.Yadrinsev, V.V.Bartold, B.Ya.Vladimirsev, A.M.Pozdneyev, G.Ye.Grumbach-Grjimaev va V.V.Radlovlar xizmati. Mo'g'ul tarixchilarining O'rta asrlar Mo'g'uliston davlati to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari. Tarixshunoslikda mo'g'ullarning kelib chiqishi (etnogenezi) va ularning yashagan hududlari va ijtimoiy tuzumi masalasini o'rganishdagi muammolar. Tarixiy adabiyotlarda Chingizxonning hokimiyatga kelish masalasining yoritilishi. Tarixshunoslikda Chingizxon va uning vorislarining hayot yo'lining va ularning davlatni boshqarish usullarining

yoritilishi. Tarixshunoslikda Mo'g'ulistondagi ijtimoiy tabaqalar va ularning imtiyoz va majburiyatlarining yoritilishi. Tarixiy adabiyotlarda Chingizxon va uning vorislari davridagi mug'ullar harbiy tizimiga berilgan baho, ularning muvaffaqiyatlari va halokati sabablarining tushuntirilishi. Tarixchilar tomonidan mo'g'ullar bosqinchilik yurishlari va bu yurishlar davridagi ular tomonidan sodir etilgan xunrezliklarning tushuntirilishi.

Mo'g'ullar davlatining tarixiy ildizlari

XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Mo'g'uliston hududida yashagan qabilalar, xalqlar va ularning tarixiy-geografik joylashishi. Jujon hoqonligining tashkil topishi va uning etnik tarkibi. Jujonlar yashagan hududlar. Jujonlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Jujonlar davlatining qulashi. Turk hoqonligi. Turk hoqonligida ijtimoiy-siyosiy kurash. Turk hoqonligining iqtisodiy hayoti. Turk hoqonligining yiqilishi. Turk hoqonligida diniy e'tiqod. Uyg'ur hoqonligi. Uyg'ur hoqonligiga kirgan mo'g'ul va turk tili qabilalar. Uyg'ur hoqonligining Xitoy bilan munosabati. Uyg'ur hoqonligida yozuv. Uyg'ur hoqonligi ilk feodal davlat ekanligi. Kidan imperiyasi. Kidan imperiyasi tarkibiga kirgan hududlarning etnik tarkibi. Kidanlarning qo'shni qabilalar bilan munosabatlari. Kidanlar imperiyasi aholisining xo'jalik hayoti. Kidanlarda din va madaniyati.

XII-XIII asrning boshlarida Mo'g'ulistonning tarixiy-jo'g'rofiy o'rni

XII-XIII asr boshlarida hozirgi Mo'g'uliston hududida yashagan qabilalar tavsifi. «Dasht» qabilalari, «O'rmon» qabilalari. Mo'g'ul qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Qabilalararo o'zaro munosabatlar. Mo'g'ul qabilalari ichida toifaviy tabaqalanishning boshlanishi. Ilk davlat uyushmalari paydo bo'lishi, mo'g'ul jamiyatida ikki tabaqaning ajralib chiqishi. Kereit qabilalarining hududiy geografik joylashuvi. «Uch merkit», «to'rt oyrat», nayman, tatar qabilalarining XII asrlardagi joylashgan hududlari. Qabilalar ittifoqi. Mo'g'ul qabilalarining madaniyati. Yirik chorvachilik xo'jaligining qay ko'rinishda namoyon bo'lishi masalasi. Urug'-qabila demokratiyasi organlarining mo'g'ul jamiyatida tutgan o'rni va mavqeyi.

Mo'g'ullar o'rtasidagi hukmronlik uchun kurashlar va Temuchinning hokimiyatga kelishi

Mo'g'ul qabilalari o'rtasida birlashish uchun harakat Temuchinning hokimiyat uchun kurashda ishtirok etishi. Mo'g'ul qabilalarining Temuchin qo'li ostida birlashtirilishi. Temuchinning xon sifatida e'tirof etilishi. Chingizxonning qo'shni qabila va yurtlarga qilgan yurishlari. 1206 yilda Chingizxonning «Qudratli va buyuk xon» sifatida ulusning iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar. Xon tomonidan xususiy xo'jalik boshqaruvining yo'lga qo'yilishi.

Chingizxonning harbiy boshqaruvi sohalorida amalga oshirilgan islohotlari. Qudratli armiyaning tashkil topishi. Chingizxonning harbiy salohiyati. XIII asr boshlarida Tangut davlati. Tangut va Chjurchjon hukmdorlarining Chingizxonga qarshi qaratilgan ittifoqqa birlashishi. Tangutlarning Chingizxon hukmronligini tan olishi.

Mo'g'ullarning harbiy tayyorgarligi

Mo'g'ul xalqlari orasida harbiy ishning umumiy taraqqiyoti. Harbiy ko'nikma va malakaning shakllantirish usullari va ov. Mo'g'ullarda qo'shin tuzilishi. Harbiy birliklar. O'nlik tizim. Harbiy qurollanish. Ot va uning mo'g'ul harbiy yurishlaridagi o'rni. Qurultoy. Harbiy strategiya. Harbiy taktika. Harbiy kiyim va oziq-ovqat ta'minoti. Mo'g'ul harbiy yurishlari muvaffaqiyati sabablari borasidagi mutaxassislar mulohazalari.

Mo'g'ul qo'shinlarining O'rta Osiyoga yurishlari va uning oqibatlari

XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati. Mamlakat hukmron doiralari ichida o'zaro nizo va boshboshdoqlikning kuchayishi, siyosiy va iqtisodiy ahvol. Xorazmshoh Muhammad va Chingizxon munosabatlari Chingizxon tomonidan Xorazmshoh Muhammadga yuborilgan birinchi elchilik. O'tror fojeasi. Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh munosabatlarining keskinlashuvi. Urush sabablari. Mo'g'ullarning harbiy muvaffaqiyatlari sabablari. O'rta Osiyoga hujum. O'tror va O'zgand shaharlarining egallanishi. Buxoro va Samarqand bosqini. Buxoro fojiasi. Xo'jand mudofaasi. Temur Malik jasorati. Urganchning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi. Xorazmshohlar davlatining qulashi. O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi oqibatlari.

Mo'g'ullarning Rus yerlarini bosib olishi. Rus hududlarida birinchi mo'g'ul-tatar ayg'oqchilarining paydo bo'lishi

Kalka jangi. XIII asrning 20-30-yillari oxirida Kaspiybo'yi va Volgabo'yi hududlariga uyushtirilgan mo'g'ullar bosqini. Botu boshchiligida mo'g'ul qo'shinlarining Rusga yurishi. Ryazan qamali. Kolomna, Moskva shaharlarining mo'g'ullar tomonidan egallab olinishi. Vladimir ostonalaridagi mo'g'ul-rus qo'shinlari to'qnashuvi Rostov, Uglich, Yaroslavl, Yuryev-Polskiy, Peryaslavl, Ksnyatin, Kashin, Tver, Torjok, Dmitrov, Kostroma yerlari mo'g'ul hukmronligi tarkibida. Mo'g'ullarning G'arbga yurishga tayyorgarligi.

Mo‘g‘ullarning Yevropaga yurishlari

Yevropa mo‘g‘ullar bosqini arafasida. Bosib olingan o‘lkalarda mo‘g‘ullarga qarshi ozodlik harakatlarning yanada kuchayishi. Yevropaning ichkari hududlariga mo‘g‘ul bosqinining boshlanishi. Yevropani egallash uchun sabab va bahona. Polshaning mo‘g‘ullar tomonidan egallanishi masalasining tarixshunoslikda yoritilishi (polyak tadqiqotchisi G.Lebuda asari asosida). Kichik Polshaning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishining tarixiy shart-sharoitlari va asosiy voqyealar. Legnisa jangi. Vengriyaga hujum arafasida Yevropadagi siyosiy ahvol. Venesiya va Avstriyaning Vengriyaga yordam berishdan bosh tortishi. Vengriya va Slovakiya yerlarining mo‘g‘ul bosqinchilari tomonidan egallab olinishi va aholining asoratga solinishi. Venger xalqining mustaqillik uchun kurashi. Partizanlik harakati. Mo‘g‘ullarning ortga chekinishi sabablari.

Chingizxon vorislari davrida xonlik taxti uchun kurash

Chingizxon ulug‘xonlik taxti borasidagi vasiyati va joriy qilqingan tartib. 1229-yilgi qurultoy. O‘qtoyning ulug‘zonlik taxtiga kelishi. O‘qtoy vafoti va ulug‘xonlik taxti uchun kurashning keskinlashuvi. Botu va Guyuk o‘rtasidagi kurashlarning chingiziyzodalar o‘rtasidagi kurashlarga aylanib ketishi. Jo‘ji, Chig‘atoy, Hulagularning amalda mustaqil idora qilinishi. Ulug‘xonlikning ikkiga bo‘linishi va Hubilayning to‘liq Xitoyga ketishi. Ariq Bug‘a bilan kurash.

IV. Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida magistrantlar “Chingizxon va uning vorislari davri tarixi” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Chingizxon va uning vorislari davri tarixi” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. O‘rta asrlar mo‘g‘ul davlati va mo‘g‘ullar masalasini yoritishda yevropalik mualliflarning asarlari manba sifatida (Plano Karpini, Marko Polo va Vilgelm Rubruk).
2. Mo‘g‘ullar o‘rtasidagi hukmronlik uchun kurashlar va Temuchinning hokimiyatga kelishi
3. Mo‘g‘ul-tangut urushlari va Szin imperiyasining mo‘g‘ul davlati tarkibiga kiritilishi. Sharqiy Turkistonda mo‘g‘ullar hukmronligining o‘rnatilishi.

4. Mo‘g‘ullar tomonidan Afg‘oniston, Turkiya va Kavkaz hududlarining bosib olinishi
5. Oltin O‘rdaning tashkil topishi, taraqqiyoti va parchalanishi.
6. Eron va Ozarbayjon Xulagular hukmronligi ostida.
7. Koreya mo‘g‘ul davlati tarkibida
8. Chig‘atoy ulusi
9. Chig‘atoy ulusining boshqa mo‘g‘ul uluslari bilan munosabatlari
10. Mo‘g‘ullarda feodal tarqoqlikning kuchayishi. (XVI-XVII asrlar).
11. XV – XVII asrlarda Mo‘g‘uliston madaniyati.
12. O‘rta asrlarda mo‘g‘ullar madaniyati. O‘rta asr adabiyotlarida Chingizxon obrazi
13. Mo‘g‘ullarda din.
14. O‘rta asr adabiyotlarida Chingizxon obrazi

Izoh: Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o‘quv rejada mazkur seminar mashg‘ulot uchun belgilangan soat hajmidan tashqari soatlar hajmiga mos mavzular tanlab belgilanadi.

V. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta‘limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta‘lim seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo‘shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1	K D’Ossonning “Mo‘gullar tarixi” asari va unda Chingizxon haqida ma’lumotlar
2	M.Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur” asarida Chingizxon tavsifi
3	M.Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur” asarida mo‘g‘ul harbiy ishi tavsifi
4	Shahobiddin An-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asarida Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi kurashi tafsilotlari
5	Shahobiddin An-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asarida mo‘g‘ullar va ularning bosqinchiligi tafsilotlari

6	Garold Lembning “Chingizxon. Dunyo hukmdori” asarida Chingizxon faoliyati tafsiloti
7	R.Yu.Pochakayevning “Botu. Xon bo‘lmagan xon” asarida Botuning faoliyati tafsilotlari hususida
8	Djon Menning “Chingizxon liderligi sirlari” asarida Chingizxon faoliyati bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar
9	V.M.Sklyarenkoning “Chingizxon” asarida Chingizxonning dafn joyi va shaxsiyati haqidagi tafsilotlar
10	T.I.Sultanovning “Chingizxon va Chingiziylar. Taqdir va hokimiyat” asarida mo‘g‘ullarda huquq va taxt merosxo‘rligi masalasi
11	Aleksandr Bushkovning “Chingizxon. Noma’lum Osiyo” asarida mo‘g‘ul davlatchiligi inqirozi haqidagi fikrlar
12	Yu.I.Drobishevning o‘rta asrlar mo‘g‘ullarning dafn marosimlari haqidagi ma’lumotlari
13	Rossabi Morrisning “Mo‘g‘ullar imperiyasining oltin davri” asarida Xubilayning islohotlari haqida ma’lumotlar
14	Rossabi Morrisning “Mo‘g‘ullar imperiyasining oltin davri” asarida Xubilayning diniy siyosati haqidagi ma’lumotlar
15	B.Ya.Vladimirsovning XI-XIII asrlar mo‘g‘ullardagi feodal munosabatlari haqidagi ma’lumotlari
16	G.G.Xafizovning “Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi va Jo‘ji ulusining paydo bo‘lishi” asarida mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi sabablari borasidagi fikrlar
17	G.G.Xafizovning “Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi va Jo‘ji ulusining paydo bo‘lishi” asarida XIII asrning 50-yillarida Jo‘ji ulusidagi taxt talashuvlari haqidagi ma’lumotlari
18	R.P.Xrapachevskiyning “Chingizxonning harbiy derjavasi” kitobida mo‘g‘ullarning harbiy strategiyasi va taktikasi haqida ma’lumotlar
19	N.N.Kradinning ko‘chmanchi mo‘g‘ul dashtidagi arbanizasiya jarayonlari

	borasidagi izlanishlari (Bazarov B.V.)
20	P.O.Rikinning oʻrta asr moʻgʻullaridagi qarindoshlik munosabatlari bilan bogʻliq terminlari borasidagi izlanishlari (Bazarov B.V. 2008)
21	T.Batfildning koʻchmanchi imperiyaning moʻgʻulcha modeli borasidagi fikrlari (Bazarov B.V. 2004)
22	A.M.Xazanovning Muhammad Xorazmshoh va Chingizxonni diniy siyosati asosida solishtirish borasidagi izlanishlari (Bazarov B.V. 2004)
23	T.Meyning XIII asrda moʻgʻullar va dunyo dinlari borasidagi izlanishlari (Bazarov B.V. 2004)
24	D.Eglning Buyuk yasa haqidagi izlanishlari (Bazarov B.V. 2004)
25	K.Kollmar-Paulensning moʻgʻullarning diniy eʼtiqodi masalasidagi yangi qarashlari (Bazarov B.V. 2004)

Izoh: Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashgʻulot uchun ishchi oʻquv rejada koʻrsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular roʻyxati shakllantiriladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., “Ўзбекистон”, 1997.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., “Шарқ”, 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т., “Ўзбекистон”, 2008.
4. Бартольд В.В. Образование империи Чингисхана, Собрание сочинений. Т.V. М., 1968.
5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сборник сочинений. Т-1. М., 1963.
6. Бира Ш. Монгольская историография. XIII-XVII вв. М., 1978.
7. Васильев Л.А. История Востока. Т.2. М.;1998.
8. Греков Б.Д. и Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М-Л., 1950.
9. История Востока. В 6 т. Т.2. Восток в средние века/Гл.редкол. Р.Б.Рыбаков. М., Вост.лит, 2002 .
- 10.История Монгольской Народной Республики. М., 1983.
- 11.История стран Азии и Африки в средние века. 1-2 ч.//Учебник. -3-е изд., доп. И перераб. Ред. кол. Ф.М.Ацамба, МГУ, Москва, 1987.
- 12.История стран Азии и Африки в средние века. Говоров Ю.Л. КГУ, 1998.
- 13.Татаро-монголы в Азии и Европе. Изд-е. 2. Ответственный редактор С.Л.Тихвинский. «Наука», М., 1977.
- 14.Чулууны Далай. Монголия в XIII-XIV веках. Пер. с монгольского. М.,1983.(1981)

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Армянские источники о монголах. М., Издательство восточной литературы, 1962.
2. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097 - 1231 гг.), "Наука", М. 1986
3. Галстян А.Г. Армянские источники о Монголии. Извлечения из рукописей XIII-XIV вв. М., 1962.
4. Гарольд Лэмб. «Чингисхан. Властелин мира/Пер. с англ. Л.А.Игоревского. Москва; 2007
5. Горелик М.В. Армии монголо-татар X-XIV веков. Военское искусство, снаряжение, оружие. М., 2002.
6. Григорьев А.Б. Монгольская дипломатия XII-XV вв., М., 1978.
7. Груссе Р. Чингисхан: Покоритель Вселенной. — М., 2008.
8. Д-р Эренжен Хари-Даван. Чингизхан как полководец и его наследие. Алма-Ата. 1992.
9. Иванин М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Тимур. Т.-1991.

- 10.История монголов: История первых четырех ханов из дома Чингисова/ Н.Я.Бичурин (о.Иакинф); История монголов/ Джованни дель Пано Карпини. М., Алгоритм, 2008. – 336 с.
- 11.Книга Марко Поло. Перевод И.П. Минаева. Редакция и примечания и примечания И.П.Магидовича, М., 1955.
- 12.Крадин Н.Н., Скрынникова Т.Д. Империя Чингис-хана. М., Вост.лит., 2006. – 557 с.
- 13.Монгольская империя и кочевой мир (Мат-лы междунар. науч. конф-ии). Кн. 3. - Улан-Удэ: Изд-во БНЦ СО РАН, 2008. -498 с.
- 14.Мэн Д. Секреты лидерства Чингисхана – Алматы: «VOX POPULI», 2010. – 228 с.
- 15.Мэн-да бэй-лу ("Полное описание монголо-татар"). М., "Наука", 1975.
- 16.Пано Карпино Джованни. История Монголов. М.1957.
- 17.Почекаев Р.Ю. Батый. Хан, который не был ханом / Р.Ю. Почекаев. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА; СПб.: Евразия, 2006. – 350
- 18.Рашид-ад-дин. Сборник летописей. т.1 кн.1, М-Л.1952; т.1. кн.2 М-Л.1952; т.III.М-Л. 1946.
- 19.Россаби, М. Золотой век империи монголов / Моррис Россаби; пер. с англ. СВ. Иванова. - СПб.: Евразия, 2009. - 479,
- 20.Рубрук В. Путешествие в восточные страны. Перевод А.И.Малина. М., 1957.
- 21.Сокровенное сказание. Монгольская хроника 1240 г. под названием «Юань-чао-би-ши», русск. перев. С.А.Козина, М.-Л., 1941.
- 22.Султанов, Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть.—М.: АСТ: 2006.—445
- 23.Утемиш Хаджи. Чингизнаме. Алма-Ата. 1992.
- 24.Уэзерфорд, Дж. Чингисхан и рождение современного мира/ Пер. с англ. Е. Лихтенштейна. - М: АСТ; Владимир: ВКТ, 2008. - 493,
- 25.Федоров-Давыдов Г.А. Общественный строй Золотой Орды. М., издательство Московского университета, 1973.
- 26.Федчина В.Н. Китайский путешественник XIII в. Чан Чунь// "Из истории науки и техники Китая". М., 1955.
- 27.Хара Даван Э. Чингисхан. Великий завоеватель. М.: Вече, 2008. 384 с. : ил.
- 28.Хафизов Г.Г. Распад Монгольской империи и образование Улуса Джучи. Казань, 2000, - 94 с.
- 29.Храпачевский Р.П. Военная держава Чингисхана. М., АСТ, 2005, 557 с.
- 30.Христианский мир и «Великая монгольская империя» Материалы францисканской миссии 1245 года. Подготовка латинского текста и перевод С. В. Аксенова, А. Г. Юрченко Экспозиция и исследование А. Г. Юрченко
- 31.Худяков Ю.С. Вооружение средневековых кочевников Южной Сибири и Центральной Азии. Новосибирск, "Наука", 1986

- 32.Цулая. Г.В. Джелал ад-дин в оценке грузинской летописной традиции// "Летописи и хроники. 1980 г.", "Наука", М. 1981
- 33.Чингисиаа : свод свидетельств современников / Пер., сост.и коммент. А. Мелехина. - М. : Эксмо, 2009. - 728 с.
- 34.Шаҳобиддин Муҳаммад ан Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти./Камол Матёкубов таржимаси/ - Т., «Ўзбекистон», 2006.
- 35.Юрченко А. Г. Историческая география политического мифа. Образ Чингис-хана в мировой литературе XIII—XV вв.СПб.: 2006. 640 с.

Internet resurslari

1. [http: // www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. <http://www.history.kemsu.ru>
3. <http://www.kulichki.com>
4. <http://www.thietmar.narod.ru> (O'rta asrlarning harbiy siyosiy tarixi)
5. <http://www.vostlit.info> (O'rta asrlar tarixi manbalarining elektron variantlari)
6. <http://www.world.history.ru>
7. [www. history. ru](http://www.history.ru)

